

ISSN 2181-9238

# **GOLDEN SCRIPTS**

# **OLTIN BITIGLAR**

**2023 Vol. 1**

[www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz)  
[www.goldenscripts.navoiy-uni.uz](http://www.goldenscripts.navoiy-uni.uz)

ISSN 2181-9238

# **GOLDEN SCRIPTS**

# **OLTIN BITIGLAR**

**2023 Vol. 1**

**[www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz)  
[www.goldenscripts.navoiy-uni.uz](http://www.goldenscripts.navoiy-uni.uz)**

**MUNDARIJA**

**MATNSHUNOSLIK. MANBASHUNOSLIK**

<b>Aftondil Erkinov</b>	
Navoiyning Metropoliten muzeyi devoni qo'lyozmasi va uning tarkibi masalasi (905/1499- 1500-yil, xattot – Sultonali Mashhadiy)	4
<b>Kemal Yavuz Ataman</b>	
Babürşah ve Küreselleşen Hindistan	21

**ADABIYOTSHUNOSLIK**

<b>Ilyos Ismoilov</b>	
Iskandar mavzusining ilk diniy-tarixiy manbalari	35
<b>Ülkər Baxşiyeva</b>	
Nizami Gəncəvinin “İskəndərnamə” poemasının bədn-estetik xüsusiyyətləri	53
<b>Ozoda Tojiboyeva</b>	
“Tarje’bandi Xomisa” – Alisher Navoiyga izdoshlik mahsuli	66

**LINGVISTIKA**

<b>Samixon Ashirboyev</b>	
Alisher Navoiy nasriy asarlarida qo'shma gap transformatsiyasidagi sodda gaplar sintaksisi	79
<b>Farhad Rahimi</b>	
Nezrali'nin Çağatay Türkçesi Sözlüğünün Değerlendirilmesi	92

**BOSH MUHARRIR**

Shuhrat Sirojiddinov

**BOSH MUHARRIR  
O'RINBOSARI**

Karomat Mullaxo'jayeva

**MAS'UL KOTIB**

Ozoda Tojiboyeva

**TAHRIR HAY'ATI**

Karl Rayxl (Germaniya)  
Isa Habibeyli (Ozarbayjon)  
Seyhan Tanju (Turkiya)  
Almaz Ulvi (Ozarbayjon)  
Benedek Peri (Vengriya)  
Vahit Turk (Turkiya)  
Teymur Kerimli (Ozarbayjon)  
Eunkyung Oh (Koreya)  
Nazef Shahrani (AQSh)  
Boqijon To'xliyev  
Muhammadjon Imomnazarov  
Bilol Yujel (Turkiya)  
Qosimjon Sodiqov  
Zulxumor Xolmanova  
Mustafa O'ner (Turkiya)  
Nurboy Jabborov  
G'aybulla Boboyorov  
Kimura Satoru (Yaponiya)  
Imran Ay (Turkiya)  
Aftondil Erkinov  
Nadir Mamadli (Ozarbayjon)  
Rashid Zohidov  
Otabek Jo'raboyev  
Bulent Bayram (Turkiya)  
Qo'ldosh Pardayev  
Nodirbek Jo'raqo'ziyev  
Oysara Madaliyeva  
Hilola Nazirova

<b>EDITOR IN CHIEF</b>	
Shuhrat Sirojiddinov	
 <b>DEPUTY EDITOR IN CHIEF</b>	
Karomat Mullakhojaeva	
 <b>EXECUTIVE SECRETARY</b>	
Ozoda Tojibaeva	
  <b>EDITORIAL BOARD</b>	
Karl Rechl (Germany)	
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	
Seyhan Tanju (Turkey)	
Almaz Ulvi (Azerbaijan)	
Benedek Peri (Hungary)	
Vahit Turk (Turkey)	
Teymur Kerimli (Azerbaijan)	
Eunkyung Oh (Korea)	
Nazif Shahrani (USA)	
Bakijan Tukhliev	
Mukhammadjan Imomnazarov	
Bilol Yujel (Turkey)	
Kasimjan Sadikov	
Zulkhumor Kholmanova	
Mustafa O'ner (Turkey)	
Nurboy Jabborov	
Gaybullah Babayarov	
Kimura Satoru (Japan)	
Imran Ay (Turkey)	
Aftandil Erkinov	
Nadir Mamadli (Azerbaijan)	
Rashid Zahidov	
Atabek Juraboev	
Bulent Bayram (Turkey )	
Kuldosh Pardaev	
Nodirbek Jurakuziev	
Oysara Madalieva	
Hilola Nazirova	

<b>CONTENTS</b>	
 <b>TEXTOLOGY. SOURCE STUDIES</b>	
<b>Aftondil Erkinov</b>	
Navoi's manuscript of the Metropolitan Museum of Art and the question of its composition (905/1499-1500 years, calligrapher - Sultanali Mashhadi)	4
 <b>Kemal Yavuz Ataman</b>	
Baburshah and Globalized India	21
 <b>LITERATURE</b>	
<b>Ilyos Ismoilov</b>	
The first religious-historical sources of Iskander theme	35
 <b>Ulkər Bakhshieva</b>	
Artistic and aesthetic features of Nizami Ganjavi's poem "Iskandername"	53
 <b>Ozoda Tojiboeva</b>	
"Tarjebandi Khomisa" as a product of following Alisher Navoi	66
 <b>LINGUISTICS</b>	
<b>Samikhon Ashirboev</b>	
Syntax of simple sentences in compound sentence transformation in Alisher Navoi's prose works	79
 <b>Farhad Rahimi</b>	
The Evaluation of Nezrali's Chagatai Turkish Dictionary	92

LINGVISTIKA  
LINGUISTICS**Alisher Navoiy nasriy asarlarida qo'shma  
gap transformatsiyasidagi sodda gaplar  
sintaksisi**Samixon Ashirboyev<sup>1</sup>**Abstrakt**

An'anaviy o'zbek tilshunosligida kesimi yoyiq shaklda uyushib kelgan gaplarga nisbatan keyingi davrda qo'shma gap deb qarash hollari kuchaygan edi. Albatta bunday qarash turli munozaralarga sabab bo'ldi. Vaqtida bunday gaplar qo'shma gap transformatsiyasidagi sodda gaplar sifatida qaralgan, Ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlari nasriy asarlari misolida bu kabi qarashlarda muhokama qilingan va mavjud nazariy fikrlar asosida tahlili amalga oshirilgan. Maqolada bu gaplar qo'shma gap transformatsiyasidagi sodda gaplar deb yuritilgan, ularga nisbatan bildirilgan ilmiy qarashlar bayon qilingan, uning rus tilshunosligi va o'zbek tilshunosligidagi talqinlari, keyingi davr adabiyotlarida uyushiq kesimli sodda gap atalishi tahlil qilinadi hamda asosli dalillar keltirilgan holda mavjud yangilash yondashuvlarga barham berildi. Ergash gap darajasiga yetmagan bunday sintaktik birlikka nisbatan transformatsiya termini qo'llandi va ularning ergash gapli qo'shma gaplarga o'xshash va ulardan farqli xususiyatlari asoslangan. Transformalarning o'zaro sintaktik munosabati va ular aloqasida qo'llanadigan bog'lovchi va bog'lovchi funksiyasidagi yordamchi so'zlar keltirilgan hamda bu transformalarning sintaktik-semantik xususiyatlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** *gap, sodda gap, qo'shma gap, qo'shma gap transformatsiyasidagi sodda gap, transformatsiya, kengaygan kesim, uyushiq kesimli sodda gap.*

**Kirish**

O'zbekiston Respublikasi va dunyoning ko'p mamlakatlarida

---

<sup>1</sup>Samixon Ashirboyev – filologiya fanlari doktori, professor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

**E-pochta:** samixon.ashirboev@mail.ru

**ORCID ID:** 0000-0002-5202-6494

**Iqtibos uchun:** Ashirboyev, S. 2023. "Alisher Navoiy nasriy asarlarida qo'shma gap transformatsiyasidagi sodda gaplar sintaksisi". *Oltin bitiglar* 1: 79-91.

Alisher Navoiyning asarlari lingvistik jihatdan tadqiq qilinayotganligi barchaga ma'lum. Lekin bu buyuk adibning asarlari adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan misli ko'rilmagan darajada mo'l o'rganildiki, bu tadqiqotlar adabiyot ilmi xazinasida bebaho boylik bo'lib qoladi. Ayni o'rinda bu fikrni lingvistik tadqiqotlarga nisbatan qo'llash ehtiyotkorlikni talab etadi. Hozir ham bu jarayon sustroq borayotganligini ta'kidlash lozim. Buni Alisher Navoiy asarlari sintaksisining o'rganilishida ham ko'rish mumkin. To'g'ri, adib asarlari sintaksisi haqidagi tadqiqotlar o'tgan asrning 80- va 90-yillarida hamda XXI asr boshlarida S.Ashirboyev, I. Azimov va M. Rahmatovlarning ishlari [Аширбоев 1990; АЗИМОВ; РАХМАТОВ 2006] paydo bo'ldi. Bu ishlarda asosiy e'tibor uning nasriy asarlari sintaksisiga qaratildi. Shuningdek, adib asarlari poetik sintaksis jihatidan ham o'rganila boshlandi. Bu ishda N.Umarova va M.Rahmatovlarning ishlarini ko'rsatish mumkin [Умарова 2005; Умарова 2021; Rahmatov 2022].

Shuni ta'kidlash joizki, Alisher Navoiy asarlari tilini tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari motivida o'rganishga katta zarurat bor, biroq bu fikr adib asarlaridagi gapning struktura va mazmun xususiyatlari to'liq o'rganib bo'lindi, degani emas, boshqacha aytganda, qo'shma gap transformatsiyasidagi gaplarda transformalarning o'zaro semantik-sintaktik xususiyatlari hali o'z tadqiqotchilarini kutmoqda. Shu ma'noda ushbu maqola ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi.

Maqolani tayyorlashda jahon tilshunosligining bir tarmog'i bo'lgan rus tilshunosligi, turkologiya va shakllangan o'zbek tilshunosligining nazariy tadqiqotlaridan foydalanildi. Ular adabiyotlar ro'yxatida aks ettirildi va masala mohiyatini yoritishda o'z o'rnida tahlilga tortildi.

### **Murakkablashgan sodda gaplar**

O'zbek tilida, shu jumladan, Alisher Navoiyning nasriy asarlarida ham mazmun planiga ko'ra murakkab, ifoda planiga ko'ra esa murakkablashgan sodda gaplar ham mavjudki, bunday gaplarda bir ega pozitsiyasi saqlangani holda kesim guruhi hokim so'z boshqaruvida kengayib keladi, boshqacha aytganda, bir gapda bir necha mazmun (propozitsiya) aks etadi [Propozitsiya haqida qarang: Гак 1981, 65; Махмудов 1981, 97]. Bu hol sodda gaplarni, so'zsiz, murakkablashtiradi. Bunday gaplar o'zbek tilshunosligida yoyiq kesimli sodda gaplar deb [Абдурахмонов 1962, 3-11], uning ikki va undan ortiq qo'llanishi esa o'sha yoyiq kesimlarning

uyushishi deb yuritilgan edi [Ашурова, Убаева, Болтабоева 1962:42]. Bu xildagi qarash ayrim turkiy tillarga oid adabiyotlarda hozirga qadar davom etib kelmoqda [Давлетов 1989, 22-23]. Yana shuni ta'kidlash lozimki, murakkablashgan sodda gaplarning bir turi bo'lgan ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi o'ramli (oborotli) gaplarda mazkur sintaktik hodisalar ikkinchi darajali predikatsiyani ifoda qilsa [Маматов 1990, 13], biz fikr yuritmoqchi bo'lgan sintaktik hodisalardagi kesim guruhini tashkil qiluvchi iboralar bir-biriga teng qiymatli, ya'ni har bir iborada mustaqil predikatsiya ifodalanadi. Bu esa o'sha iboralarni qo'shma gaplarga tenglashtirib qo'yadi, lekin bunday gaplar qo'shma gap shaklini (formasini) saqlasa-da, bir eganing belgilarini bildirgani uchun ham sodda gap doirasidan chiqib ketmaydi.

Tilshunoslikda kesimning gap sathida grammatik mustaqilligi nazarda tutilib, gapda birdan ortiq kesimlarning qo'llanishini uyushish emas, balki gapning qo'shma gapga aylana boshlagani degan fikrlar uchrab turadi. Bu fikr dastlab nemis tilshunosligida, xususan, V.G.Admoni asarida ko'zga tashlanadi. U kesimning parallel qo'llanishini (uyushishini) qo'shma gaplarga yaqinlashgan deb tushuntiradi [Адмони 1955, 200]. Shu fikr keyinchalik qo'llab-quvvatlandi hamda X.Ne'matov, K.M.Abdullayev, V.I.Banaru, N.M.Mahmudov, A.Nurmanov, D.A.Muhamedovalar tomonidan munozara uchun e'lon qilingan maqolada uyushiq kesimlarning har qaysisiga nisbatan alohida gap deb qarash tavsiya qilindi [Нигматов, Абдуллаев, Ванару, Махмудов, Мухамедова, Нурманов 1984, 5-7].

Bunday fikr yuritish bejiz emas, albatta, chunki avval ta'kidlanganidek, kesim gap tarkibida muqim o'rin tutadi, ya'ni gap uchun zarur bo'lgan barcha belgilarni (predikatsiya, intonatsiya) ifoda qila oladi [Гак 1981, 83]. Bu fikrni inkor qilmaganimiz holda, biz kesimi sodda, tarkibli holda uyushganlarini an'anaga muvofiq ravishda o'rganish tarafdorimiz, chunki uyushish hodisasi barcha gap bo'laklari uchun umumiy ekanligini e'tiborga olish zarur. Lekin bir eganing belgisini ifoda qiladigan ikki va undan ortiq hokim komponent boshqaruvidagi kengaygan kesimli gaplarni *qo'shma gap ko'chimidagi sodda gap* deb o'rganishni ma'qul ko'rdik va kengaygan kesimli har bir sintaktik birlikni *sintaktik transform* termini bilan yuritdik. Aslida o'rganilayotgan gaplar uyushiq bo'lakli gap hamda qo'shma gap belgilariga ega. Adabiyotlarda bir egaga taalluqli bo'lgan kesimlarning kengayib kelishi murakkablashgan gap sifatida qaralishi davom etmoqda, lekin bu masalada munozara

hali davom etayotganligi ham ta'kidlanmoqda [АКИМОВА 2013, 184].

Kesimi kengaygan holda ikki va undan ortiq qo'llangan transformalarning qo'shma gaplarga o'xshash belgilari:

1. Bunday gaplarning kesim guruhida ikki va undan ortiq mazmun ifodalanadi va har qaysi ibora predikativlik belgilariga ega bo'ladi.

2. Bunday gaplarning kesim guruhi (transformalar) bir-biri bilan turli mazmun munosabatlarida bo'ladi, ya'ni bir-biri bilan sabab-natija, shart-natija kabi ma'no munosabatlariga kirishadi.

3. Kesim guruhini tashkil etuvchi bu transformalar o'zaro teng va ergashtiruvchi bog'lovchilar bilan bog'lanadi.

Bir ega va bir necha kesim qatnashgan gaplar avvaldan rus tilshunosligida keng munozara qilingan. Bu haqdagi fikrlarni jamlab va xulosa qilib M.I.Cheremisina va T.A.Kolosovalar bunday gaplarni monosubyehtli polipredikativ iborali (полипредикативные моносубъектные) gaplar deb yuritishni tavsiya qilgan edi [Черемисина, Колосова 1987, 95].

Kesimi kengaygan holda ikki va undan ortiq qo'llangan gaplarni sodda gap sathida o'rganishda bu iboralarning alohida egasi bo'lmaganligi asosiy sababdir. Aslida bunday gaplar qo'shma va sodda gaplar oraligida bo'ladi [Валгина 1978, 229]. Transforma terminining bunday sintaktik hodisaga nisbatan qo'llanishi turkologiyada ham keng tarqalgan. N.Z.Hojiyeva (Гаджиева) va B. A. Serebrennikovlar sodda va qo'shma gap o'rtasida turuvchi bunday sintaktik hodisaga maxsus to'xtalib, shunday degan edilar: "Ikki mustaqil grammatik jihatdan shakllangan egasi bo'lgandagina ularni qo'shma gap deb qarash lozim" [Гаджиева, Серебренников 1986, 104]. "Endi doimo munozarali bo'lib kelgan masalaga u yoki bu darajada javob berish vaqti yetdi. Transformalar haqiqatan ham ergash gapli qo'shma gapmi?... Biz bu konstruksiyalarni ergash gap deb hisoblamaymiz" [Гаджиева, Серебренников 1986, 156]. Bunday gaplarga nisbatan o'zbek tilshunosligida *uyushiq kesimli sodda gap* deb qaralgan [Sayfullayeva 2019, 514].

Sintaktik transformalarning hokim komponentlari fe'l va boshqa so'z turkumlari bilan ifolalanishi mumkin. Bu esa ulardagi hokim komponentning ifoda materialiga ko'ra quyidagicha tasnif qilish imkonini beradi:

1. Fe'l boshqaruvli transformalar.
2. Ot boshqaruvli transformalar.
3. Fe'l va ot boshqaruvli yoki aralash transformalar.

Shundan ushbu maqolada fe'l boshqaruvli transformalar



strukturasi va ularning o'zaro semantik munosabatlari to'g'risida bahs qilinadi. Bunday transformalar bir gapda ikki va undan ortiq qo'llanishi mumkin. Ayniqsa, bir gapda ikki marta qo'llanishi ko'proq uchraydi. Bunday transformalarning hokim komponenti vazifasida sodda fe'l yoki qo'shma fe'l qo'llanadi hamda ularning grammatik shakllari odatdagi sodda gaplarning kesimidan farq qilmaydi. Shunga qaramasdan, bunday transformalarda hokim komponent bo'lgan kesimlarning qo'llanishi haqida ayrim o'ziga xosliklarni uchratish mumkin:

1. Har ikkala transformasi kesimi ayni bir so'z shakli bilan ifodalanadi: *Otashin yuzluk mug'anniyki, xalqdin muloyim surud chiqarg'ay, hol ahlining kuygan bag'ridin dud chiqarg'ay* [MQ 35]. Bu gapda chiqarg'ay har ikkala transformasi uchun umumiydir. Bu xildagi transformalarning ikkinchisida hokim komponent tushib qolishi ham mumkin: *Ilm o'qub, amal qilmag'an yerni shiyor qilib, tuxm solmag'ang'a o'xshar, yo tuxm solib, mahsulidin bahra olmag'ang'a* [MQ 141]. Demak, ikkinchi transformasi uchun ham o'xshar fe'li implitsid kesim hisoblanadi. Bu xususiyat hozirgi o'zbek tiliga, ayniqsa, xalq maqollari tiliga ham xosdir [Фуломов, Асқарова 1965, 101].

2. Transformalardagi hokim komponentlar bir xil so'z shakli bilan ifodalanadi: *Muftikim hiyla bila fatvo tuzar, ilm no'gi bila shariat yuzin buzar* (MQ 23). Bunda -r affiksli fe'lning kelasi zamon sifatdoshi bilan ifodalanishi nazarda tutilmoqda.

3. Transformalardagi hokim komponentlardan biri hozirgi-kelasi zamon, ikkinchisi o'tgan zamon fe'li shaklida qo'llanadi: *Faqir ani ko'rmaymen* (hozirgi-kelasi zamon), *ammo mavlono Muhammad Badaxshiydin ta'rifin yeshitibmen* (o'tgan zamon) [MN 136].

4. Transformalarning hokim komponentlari turli fe'l shakllari bilan ifodalanishi mumkin: *Va ko'p xaloyiq anga firifta bo'lub* (qo'shma fe'l, ko'makchi fe'li ravishdosh shaklida), *aning dinig'a kirdilar* (sodda fe'l, aniq o'tgan zamon) [TMA 42].

5. Transformalardan biri yoki ikkalasi ham turg'un birikma bo'lishi mumkin: *Va ul to'rt oy mulk surdi va borur mulkni o'zgalarga topshurdi* [TMA 44]. Birinchi transformaning hokim komponenti (davlatni boshqardi ma'nosidagi *mulk surdi* frazemasi), ikkinchi transformani esa to'lig'icha frazema tashkil etgan.

## **Transformalarning o‘zaro bog‘lanishi va semantik munosabatlari**

Bunday transformalar bog‘lovchilar yordamida grammatik aloqaga kirishishi bilan bir qatorda bog‘lovchisiz shakllanishi ham mumkin. Bog‘lovchisiz qo‘llanishda quyidagi mazmun munosabatlari namoyon bo‘ladi:

1. Oldinma-keyin yuz bergan xatti-harakatni bildiradi: *Alar vahmdin ul tiflni bir qiymatliy nimaga chirmab, ul choh boshida qo‘yub qochtilar* (TMA 27), ya‘ni avval bir narsaga o‘radilar, keyin shu choh boshiga qo‘ydilar, degan mazmun anglashiladi. *Faqir ul hazrattin ijozat tilay, xidmatlarig‘a bordim* [XM 13], bunda ham avval ijozat so‘rash, keyin oldiga kirish mazmuni anglashiladi.

2. Transformalar shart-natija mazmun munosabatida bo‘ladi: *Birovkim yolg‘on so‘zni birovig‘a bog‘lag‘ay, o‘z qora bo‘lg‘an yuzin yog‘lag‘ay* [MQ 127]. Bunda birinchi transformasi shart mazmunini ifoda qilgan.

3. Oldingi transformasi keyingisida yuz bergan ish-harakatning paytini bildiradi: *Ul avvali muloqotda qovun yeydur erdi, po‘chog‘ini Xoja sari tashladi* (NM 138), ya‘ni qovun yeb turgan paytida po‘chog‘ini Xojaning oldiga tashladi. Bu mazmun munosabati ushbu gapni payt ergash gapli qo‘sma gapga sinonimligini ta‘minlaydi.

4. Transformalar sabab-natija mazmun munosabatida bo‘ladi: *Hukamokim salotin holi kayfiyatini bilibdurlar, alarni o‘tqa tashbih bilibdurlar* [MQ 130], ya‘ni sultonlarning kayfiyatini bilgani uchun ham ularni o‘tga o‘xshatganlar. Bu gapdagi transformalar ham sabab-natija ergash gapiga sinonim bo‘la oladi..

5. Keyingi transformasi oldingisida aks etgan mazmunni oydinlashtiradi: *Jam‘iki muammo ayturlar, base zahmat bila bir bayttin yo bir ruboiydin bir ism hosil qilurlar* [HPM 383a]. Birinchi transformasi, ya‘ni *muammo ayturlar* transformasi abstraktroq mazmunni ifodalaydi, ikkinchisida esa ular aniqlashtirilgan.

6. Transformalar zid mazmun munosabatida bo‘ladi: *Otashgoh o‘ti qiroqtin naf‘ yetkurur, ichiga tushganni filhol kuydurur* [MQ 130]. Bu transformalar esa bog‘lovchisiz bog‘langan gapga sinonim bo‘la oladi.

7. Transformalar o‘xshatish mazmun munosabatida bo‘ladi: *Yomon tillik, andoqki, yel ko‘ngliga jarohat yetkurur, o‘z boshiga ham ofat yetkurur* [MQ 126]. Albatta, bu gaplardagi transformalarning o‘xshatish mazmunini *andoqki* kirish so‘zi ham anglatib turibdi.

8. Dastlabki transformasi mazmunini keyingisida kuchaytiriladi va bunda ko‘proq o‘xshatish san‘atidan foydalaniladi: *Ulki juz quvvat*

*da'vosi izhor qilmas, go'yoki, haqning qaviyul matin erkanin bilmas* [MQ 123]. *Ishlari talay olg'anni talamoq, yot mulkda cho'kurtkadek sabza yafrog'ni yalamoq* [MQ 19]. Bu mazmunni ta'minlashda *go'yo* ko'makchisi va *-dek* o'xshatish affiksi yordamga kelgan.

9. Dastlabki transformadagi mazmun keyingisiga taqqoslanadi: *Olim kerakki o'z ilmining poya va miqdorin asrag'ay, guharni imtihon uchun toshqa urmag'ay* [MQ 142]. Bu misolda *kerakki* so'zining gap strukturasidagi funksiyasi to'g'risida fikr aytish lozim bo'ladi. Aslida bu gap forsiy qolipda qurilgan. Bunda *kerakki* so'zi ega va kesim o'rtasidagi bog'lama vazifasini bajargan, lekin bu so'z taqqoslash ma'nosida ishtirok etmagan. Taqqoslash esa ushbu ikki transformaning mazmunidan anglashiladi.

10. Ba'zan avvalgi transformada keyingisining obrazli ifodasini bildiradi: *Kishi manfaat uchun sher asrarmen degaymu, xosiyat topar umidig'a zahr yegaymu* [MQ 129]. Ko'rinadiki, bu transformalarda ham taqqoslash mazmuni bor, lekin transformalar mazmuni o'ta bo'rttirilgan.

11. Oldingi transformada keyingisidagi ish-harakatning bajarilish tarzini, holatini ifoda qiladi: *Va ul tundxo'ylug'ni tark qilib, adolat va murosa va afv pesha qildi* [TMA 44]. *Bu faqir bag'oyat xijolatzada bo'lub, tarixg'a munosib alfoz xayolig'a tushtum* [XM 9]. Bu transformalar ham tarz ergash gaplarga sinonim bo'la oladi.

Transformalarni bog'lashda *va*, *dag'i*, *ammo*, *yoxud*, *ham*, *va ham*, *yo'qkim* teng va funksional bog'lovchilari qatnashgan.

### **Va bog'lovchisi**

Hozirgi o'zbek tilida bu bog'lovchining vazifasi ancha chegaralangan [Абдурахмонов 1974, 28] bo'lib, uyushiq bo'laklarda "... sintaktik jihatdan baravar, mazmuman uygun bo'lgan ..." [Ғуломов, Асқарова 1965, 150], "... bir paytda bo'lgan, ketma-ket, oldinma-keyin yuz bergan harakatlarni ifodalaydigan uyushiq kesimlarni bog'lasa" [Ашурова, Убаева, Болтаева 1932, 40], eski o'zbek tilida bu bog'lovchi payt, qiyoslash, sabab, sabab-natija ma'no munosabatlarini ifodalaydigan qo'shma gaplarni bog'lash vazifasini ham bajargan [Абдурахмонов 1960, 21; Рахмонов 1971, 18]. Alisher Navoiyning nasriy asarlarida **va** bog'lovchisi transformalarni boglashda quyidagi o'rinlarda qo'llangan:

1. Bir vaqtda yuz bergan yoki yuz bermaydigan, oldinma-keyin sodir bo'ladigan ish-harakat va holatni ifodalovchi transformalarni bog'laydi: *Shayx Abu Is'hoq aning uyiga kelur erdi va aning taomidin yer erdi* [NM 119].

2. Keyingisida anglashilgan harakat va holatning amalga oshirilishi uchun birinchisi vosita bo'ladigan transformalarni bog'laydi: *Haq taolo anga rayosat masnadida bu eshikni ochti va karomat tojin aning boshig'a qo'ydi* [NM 113]. *Adab va tavoze' do'stlug' ko'zgusiga jilo berur va ikki jonibdin yorug'luq yetkurur* [MQ 81].

3. O'zaro payt mazmun munosabatidagi transformalarni bog'laydi: *Shayx Sa'diy filhol ul zarfni hozir qildi va ul vajhni darveshlar sufrasi'ga sarf qildilar* [NM 95]. *Base ahlullohki arg'unun unidan dayrg'a kirdi va din-u islom naqdin mug'bachalarg'a boriy berdi* [MQ 36]. Bunday mazmun munosabati faqat Alisher Navoiy uslubiga xosligini ta'kidlash mumkin, chunki boshqa mumtoz adiblar, hozirgi o'zbek adabiy tili uchun ham xos emas.

4. Sabab-natija mazmun munosabatlaridagi transformalarni bog'laydi: *Furud alar bila nizo zohir qildi va ilikka tushti* [TMA 15]. *Navkarki valine'mattin rioyat ko'rgay va bek-u maxdumidan tarbiyat va inoyat ko'rgay* [MQ 52]. Bunday bog'lanish ham faqat mazkur adib uslubida dayd qilinadi.

5. Mazmuni kuchaytirilib borilgan transformalarni bog'laydi: *Kishi bu nav' g'amnoklik bila ne nishotomez alfozg'a rabt bergay va bu parishonliq bila ne maoniy-i gavhar-i jam' qilg'ay?* [V 24a]. Bu gap bog'langan qo'shma gapga sinonim bo'ladi.

**Va** bog'lovchisi **ham** bog'lovchisi bilan birga qo'llanib, mazmunan zid bo'lgan transformalarni bog'lagan: *Odamiy til bila soyir hayvondin mumtoz bo'lur va ham aning bila soyir insong'a sarafroz bo'lur* (MQ 126).

**Va ham** bog'lovchisi faqat Alisher Navoiy tilida uchraydi va mazmuni kuchaytirib boriladigan transformalarni bog'laydi: *Yillar umri bu nav' o'tti va ham bu hol bila o'tti* [NM 104].

**Dag'i** bog'lovchisi oldinma-keyin yuz bergan holatni ifodalagan transformalarni bog'laydi: *Afrosiyob turush bermadi dag'i yuz qaytardi* [TMA 15]. Ma'lumki, bu bog'lovchi hozirgi o'zbek tilida funksional emas.

**Ham** bog'lovchisi sinonimik munosabat anglashiladigan transformalarni bog'lagan: *Amaliki tengri qabulig'a shoistadur ham tengri tavfiqig'a vobastadur* [MQ 129].

**Ammo** bog'lovchisi hozirgi o'zbek tilidagi singari mazmun jihatdan zid iboralarni bog'laydi va zidlovchi bog'lovchili qo'shma gapga sinonim bo'ladi: *Olam yaxshilig'in kishi o'zidin darig' tutmas, ammo o'zga kishiga yovutmas* [MQ 100].

**Yoxud** bog'lovchisi dastlabki transformazmuni keyin-

gisida rivojlantiriladigan (o'xshatish asosida) transformalarni bog'laydi: *Mehr va'dasi hamono mehriyohdek itti yoxud tun yarmida mehrdek yer tubiga ketti* [MSh 7]. Bu ayiruvchi bog'lovchili qo'shma gapga sinonim bo'ladi.

### **Yo'qkim bog'lovchisi**

Bu funksional bog'lovchi ma'no jihatdan *balki* bog'lovchisiga yaqin va Alisher Navoiy nasriy asarlaridan "Mahbub ul-qulub" asarida kengroq qo'llangan. O'zbek va boshqa turkiy tillar tarixiga oid ishlarda "yo'q ersa" (yo'qsa) shaklining ergash gapni bosh gapga bog'lashi haqida fikrlar uchraydi [Абдурахмонов 1967, 131], lekin *yo'qkim* bog'lovchisining qoshma gap komponentlarini bog'lashiga doir ma'lumotlar qayd qilinmagan. Keltirilayotgan misollar bu bog'lovchi avvalgi transformadagi ish-harakat mazmuni keyingisi orqali ta'kidlanadigan transformalarni bog'lagan: *Elning maxfiy aybin paydo qilmoq o'zin bee'timod, o'zidekni rasvo qilmoqdur, yo'qkim, o'zidekni rasvo va o'zining ham bu nav' aybin oshkor qilmoqtur* [MQ 140].

### **Xulosa**

Alisher Navoiy asarlari tili bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilayotgan bo'lsa-da, uning tiliga xos bo'lgan xususiyatlarni to'liq aks ettira olmaydi. Uning asarlari matni struktura-semantik, lingvokulturologik, sotsiologik, poetik sintaksis jihatidan talay tadqiqotlarga manba bo'lishi kerak. Ushbu maqolada ana shunday masalalardan biri, ya'ni transformalarning sintaktik-semantik masalasi yoritildi. Bu kabi masalalar, avval ta'kidlaganimizdek, keyingi davrda e'tibordan chetda qolmoqda edi. Qo'shma va sodda gap o'rtasida turuvchi bunday gaplar statusi masalasini Alisher Navoiy nasriy asarlari misolida hal qilishga harakat qilindi va uning yechimiga erishildi.

### **Qisqartmalar**

V – Vaqfiya

ML – Muhokamatul lug'atayin

MN – Majolisun nafoysis

MQ – Mahbubul qulub

NM – Nasoyimul muhabbat

TMA – Tarixi muluki Ajam

MSh – Munshaot

XM – Xamsatul mutahayyirin

## HPM – Holoti Pahlavon Muhammad

**Adabiyotlar**

- Абдурахмонов, Г. 1974. *Тарихий синтаксис*. Тошкент: Фан.
- Абдурахмонов, Г. 1962. “�збек тили синтаксисида мураккаб гаплар масаласига доир”. *Ўзбек тили ва адабиёти масалалари* 3. Тошкент.
- Абдурахманов, Г. 1967. *Исследование по старотюркскому синтаксису (XII в.)*. Москва: Наука.
- Абдурахманов, Г. 1960. *Основы синтаксиса сложного предложения современного узбекского литературного языка*. Ташкент: Фан.
- Адмони, В.Г. 1955. *Введение в синтаксис немецкого языка*. Москва: Из-во литературы на иностранном языке.
- Азимов, И. 2001. *Алишер Навоийнинг насрий асарларида кесим марказли бир бош бўлакли гапларнинг шаклий ва мазмуний хусусиятлари*. Филол. фан. номз. ... дис. Тошкент.
- Акимов, Г. Н., Вяткина, С. В., Казаков, В. П., Руднев, Д. В. 2013. *Синтаксис современного русского языка*. СПб: Санкт-Петербургский государственный университет.
- Аширбоев, С. 1990. *Алишер Навоийнинг насрий асарларидаги содда гапларнинг таркибий ва маъно хусусиятлари*. Филол. фан. доктори ... дис. Тошкент.
- Ашурова, Д., Убаева, Ф., Болтабоева, Х. 1962. *Гапнинг уюшган ва ажратилган бўлаклари*. Тошкент: Фан.
- Гаджиева, Н.З., Серебренников, Б.А. 1986. *Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Синтаксис*. Москва: Наука.
- Гак, В.Г. 1981. *Теоретическая грамматика французского языка. Синтаксис*. Москва: Высшая школа.
- Давлетов, М. 1989. Структурные типы простого осложненного предложения в современном каракалпакском языке. Автореф. дис. ... докт. филол. наук. Нукус.
- Маматов, М.Ш. 1990. *Вторичный предикат, выраженный субстантивными формами в современном узбекском языке*. Ташкент: Фан.
- Махмудов, Н. М. 1984. *Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик-синтактик асимметрия*. Тошкент: Ўқитувчи.
- Нигматов, Х.Г., Абдуллаев, К.М., Банару, В.И., Махмудов, Н.М., Мухамедова, Д., Нурмонов, А. 1984. “Структура предложения и актуальные вопросы синтаксиса тюркских языков”. *Советская тюркология* 5. Баку.
- Рахманов, М. 1971. *Синтаксические особенности языка газеты “Туркистон вилоятининг газети”*. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. Ташкент.
- Раҳматов, М. 2008. *Алишер Навоий насрий асарларида эргаштирувчи боғловчили гапларнинг синтактик-семантик хусусиятлари*. Филол. фан. номз. ... дис. Тошкент.



- Rahmatov, M. 2022. "Bayt intonatsion strukturasi va intonatsion kuchli pozitsiyasi". *O'zbek shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya va yangicha yondashuv*. Toshkent: Donishmand ziyosi.
- Sayfullaeva, R.R., Mengliyev, B.R., Raupova, L.R., Qurbonova, M.M., Abuzalova, M.Q., Yo'ldoshev, D.N. 2019. *Hozirgi o'zbek tili*. Toshkent (elektron variant).
- Умарова, Р. 2005. *Алишер Навоий мақтасида сабаб ва оқибат муносабатининг ифодаланиши*. Филол. фан. номз. ... дис. Фарғона.
- Умарова, Н. 2021. *Алишер Навоий асарларининг лисоний-концептуал тадқиқи*. Филол. фан. докт. ... дис. Фарғона.
- Черемисина, М.И., Колосова, Т.А. 1987. *Очерки по теории сложного предложения*. Новосибирск: Наука.
- Валгина, Н. С. 1978. *Синтаксис современного русского литературного языка*. Москва: Высшая школа.
- Ғуломов, А.Ғ., Асқарова, М.А. 1965. *Ҳозирги ўзбек адабий тили*. Тошкент: Ўқитувчи.

## **Syntax of simple sentences in compound sentence transformation in Alisher Navoi's prose works**

Samikhon Ashirboev<sup>1</sup>

### **Abstract**

In traditional Uzbek linguistics, in later period, the number of cases of considering subordinate clauses as complex sentences increased. From this point of view caused various discussions. At that time, such sentences were considered as simple sentences in the transformation of a compound sentence; in this article, using the example of the prose works of Alisher Navai, such sentences are considered from the point of view and analyzed on the basis of existing theoretical ideas. In the article, such sentences are treated as the simple sentences in a compound transformation, the scientific views expressed in relation to them are described, their

---

<sup>1</sup>*Samikhon Ashirboev* – Doctor of Philology, Professor, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

**E-mail:** samikhon.ashirboev@mail.ru

**ORCID ID:** 0000-0002-5202-6494

**For citation:** Ashirboev, S. 2023. "Syntax of simple sentences in compound sentence transformation in Alisher Navoi's prose works". *Golden scripts* 1: 79-91.

interpretations in Russian linguistics and Uzbek linguistics, the term simple sentence with a connected participle in literature of the later period is analyzed, and the existing erroneous approaches are eliminated by reasonable argumentation. The term transform was applied to such a syntactic unit that did not reach the level of a subordinate clause, and their features were based on similar and different features from sentences with a subordinate clause. Mutual syntactic relations of transformations and the auxiliary words used in their connection with function of linking words and connection are presented, as well as the syntactic and semantic features of these transformations are highlighted.

**Key words:** *sentence, simple sentence, compound sentence, simple sentence in transformation of compound sentence, transform, extended clause, simple sentence with combined clause.*

### References

- Abdurahmonov, G. 1974. *Tarixiy sintaksis*. Toshkent: Fan.
- Abdurahmonov, G. 1962. "O'zbek tili sintaksisida murakkab gaplar masalasiga doir". *O'zbek tili va adabiyoti masalalari* 3. Toshkent.
- Abduraxmanov, G. 1967. *Issledovanie po starotyurkskomu sintaksisu (XIIv.)*. Moskva: Nauka.
- Abduraxmanov, G. 1960. *Osnovi sintaksisa slojnogo predlojeniya sovremennogo uzbekskogo literaturnogo yazika*. Tashkent: Fan.
- Admoni, V.G. 1955. *Vvedenie v sintaksis nemeskogo yazika*. Moskva: Iz-vo literaturi na inostrannom yazike.
- Azimov, I. 2001. *Alisher Navoiyning nasriy asarlarida kesim markazli bir bosh bo'lakli gaplarning shakliy va mazmuniy xususiyatlari*. Filol. fan. nomz. ... dis. Toshkent.
- Akimova, G. N., Vyatkina, S. V., Kazakov, V.P., Rudnev, D.V. 2013. *Sintaksis sovremennogo russkogo yazika*. SPb: Sankt-Peterburgskiy gosudarstvenniy universitet.
- Ashirboev, S. 1990. *Alisher Navoiyning nasriy asarlaridagi sodda gaplarning tarkibiy va ma'no xususiyatlari*. Filol. fan. doktori ... dis. Toshkent.
- Ashurova, D., Ubaeva, F., Boltaboeva, H. 1962. *Gapning uyushgan va ajratilgan bo'laklari*. Toshkent: Fan.
- Gadjieva, N.Z., Serebrennikov, B.A. 1986. *Sravnitel'no-istoricheskaya grammatika tyurkskix yazikov*. Sintaksis. Moskva: Nauka.
- Gak, V.G. 1981. *Teoreticheskaya grammatika fransuzskogo yazika*. Sintaksis. Moskva: Visshaya shkola.
- Davletov, M. 1989. *Strukturnie tipi prostogo oslojnennogo predlojeniya v sovremennom karakalpakskom yazike*. Avtoref. dis. ... dokt. filol. nauk. Nukus.
- Mamatov, M.Sh. 1990. *Vtorichniy predikat, virajenniye substantivnimi formami v sovremennom uzbekskom yazike*. Tashkent: Fan.



- Mahmudov, N. M. 1984. *O'zbek tilidagi soddaga gaplarda semantik-sintaktik asimmetriya*. Toshkent: O'qituvchi.
- Nigmatov, X.G., Abdullaev, K.M., Banaru, V.I., Maxmudov, N.M., Muxamedova, D., Nurmonov, A. 1984. "Struktura predlozheniya i aktualnye voprosy sintaksisa tyurkskix yazykov". *Sovetskaya tyurkologiya* 5. Baku.
- Raxmanov, M. 1971. *Sintaksicheskie osobennosti yazika gazeti "Turkiston viloyatining gazeti"*. Avtoref. dis. ... kand. filol. nauk. Tashkent.
- Rahmatov, M. 2008. *Alisher Navoiy nasriy asarlarida ergashtiruvchi bog'lovchili gaplarning sintaktik-semantik xususiyatlari*. Filol. fan. nomz. ... dis. Toshkent.
- Rahmatov, M. 2022. "Bayt intonatsion strukturasi va intonatsion kuchli pozitsiyasi". *O'zbek shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya va yangicha yondashuv*. Toshkent: Donishmand ziyosi.
- Sayfullaeva, R.R., Mengliyev, B.R., Raupova, L.R., Qurbonova, M.M., Abuzalova, M.Q., Yo'ldoshev, D.N. 2019. *Hozirgi o'zbek tili*. Toshkent (elektron variant).
- Umarova, R. 2005. *Alisher Navoiy maqtasida sabab va oqibat munosabatining ifodalanishi*. Filol. fan. nomz. ... dis. Farg'ona.
- Umarova, N. 2021. *Alisher Navoiy asarlarining lisoniy-konseptual tadqiqi*. Filol. fan. dokt. ... dis. Farg'ona.
- Cheremisina, M.I., Kolosova, T.A. 1987. *Ocherki po teorii slojnogo predlozheniya*. Novosibirsk: Nauka.
- Valgina, N. S. 1978. *Sintaksis sovremennogo russkogo literaturnogo yazika*. Moskva: Visshaya shkola.
- G'ulomov, A.G., Asqarova, M.A. 1965. *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. Toshkent: O'qituvchi.

## MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

“Oltin bitiglar – Golden Scripts” jurnali – Sharq adabiyoti va madaniyati, ijtimoiy-ma’naviy hayoti, tilshunoslik va aniq fanlar, dinshunoslik va ilohiyotshunoslikka oid ahamiyatli qo’lyozma manbalar, xalq og’zaki ijodi namunalariga bag’ishlangan ilmiy tadqiqotlar xulosalarini chop etishga mo’ljallangan.

### I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo’lyozmalar yil davomida o’zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, turkiy tillarda topshirilishi mumkin. Agar muallif o’z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr etmoqchi bo’lsa, unda qo’lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etishi kerak.

Qo’lyozmalar MS Word (.doc) formatida (oltinbitiglar@gmail.com) elektron pochtasiga yuborilishi kerak. Iqtiboslar va izohlar bo’yicha MS Word menejerini qo’llash lozim.

Barcha qo’lyozmalar muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma’lumot bilan yuboriladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig’i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o’ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo’lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16<sup>th</sup> Edition* formatida shakllantirilishi lozim.

Maqola matni 3 000–5 000 so’zdan iborat bo’lishi kerak.

100–150 so’zdan iborat o’zbek va ingliz tillaridagi abstrakt (annotatsiya) va 5–10 so’zdan kam bo’lmagan kalit so’zlar (o’zbek va ingliz tillarida). Abstrakt maqolaning maqsadi, metodologiyasi va natijalarini qisqacha ifodalashi kerak.

Adabiyotlar ro’yxati 5 sahifadan oshmasligi lozim.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo’lishi mumkin) 1500 so’zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so’ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

### II. Maqola bo’limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to’q bo’yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o’zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tillarda yozilgan bo’lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola sarlavhasidan keyin sahifaning o’ng chetida muallifning ism-familiyasi yozilib, oxiriga yulduzcha (\*) ishorasi

qo'yiladi va sahifa pastida muallif haqida quyidagi qisqa ma'lumotlar beriladi: F.I.O., ilmiy daraja va unvon; ish joyi; e-pochta va ORCID ID (raqami).

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.

Maqola bo'limlari sarlavhasi – *yotiq*, 14 hajm.

### **III. Maqolada tarjimalardan foydalanish**

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki" shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

### **IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi**

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasi qavs ichida ( ) satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

### **V. Havola va izohlar berish**

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [ ] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

### **VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi**

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satrboshidan, boshqa barcha qatorlari abzasdan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

## 6.1. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

### **Matnda qo'lyozma (toshbosma)ga havola berish:**

[Xondamir, Makorim, 17<sup>a</sup>]

## 7.2. Kitoblar uchun

### **Bibliografiyada:**

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011. *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

### **Matnda kitobga havola:**

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2011, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

### **Matnda kitobga havola:**

[Sirojiddinov 2011(a), 99]

## **Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Vohidov, Rahim va Husniddin Eshonqulov. 2006. *O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi*. Toshkent: Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.

### **Matnda kitobga havola:**

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va Eshonqulov 2006, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq muallifi bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismi to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda, birinchi muallifning ismi yozilib, davomida *va boshqalar* deb ko'rsatiladi:

[Familiya va boshqalar nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

## **Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Navoiy ijodida Ya'juj-Ma'juj obrazi." *Alisher Navoiy va XXI asr*, Shuhrat Sirojiddinov muharrirligida, 130 – 133. Toshkent: Mashhur-press.

### **Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 131]

### **Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:**

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

### **Elektron kitobni bibliografiyada berish:**

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL.  
Foydalanilgan sana.

Adizova, Iqboloy. 2020. *Thinker poetess of the East*. Germany: Lambert Academic Publishing. <https://www.lap-publishing.com/>. 12.07.2019.

### **Matnda elektron kitobga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Adizova 2020, 11]

### **Ikki muallif tomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

### **Matnda elektron kitobga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 1987, 19-hujjat]

## **7.3. Jurnal maqolasi uchun**

### **Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari.

Alimuhamedov, Rixsitilla. 2018. "Qadimgi turk-moniy adabiyoti." *Oltin bitiglar* 1: 65 – 76.

### **Matnda jurnal maqolasiga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Alimuhamedov 2018, 70]

### **Elektron jurnal uchun:**

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

### **Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:**

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Saddi Iskandariy" dostonidagi adabiy ta'sir va o'ziga xoslik masalasi xususida." *O'zbekistonda xorijiy tillar* 3: 229 – 235. doi: 10.36078/1596780050.

### **Matnda maqolaga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 231]

## **7.4. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun**

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida chop etilgan maqolasida aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro'yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo'yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo'lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko'rsatilishi kerak.

### **Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi.

Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. "Jomiy "Xamsa" yozganmi?." *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*, January 25.

**Matnda maqolaga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

**Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:**

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Sobirov, Ergash va Akmal Kenjayev. 2010. "Milliy qadriyat va globallashuv". *New York Times*, 27.02. <http://www.nytimes.com/28/us/28health.html>.

**Matnda maqolaga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sobirov va Kenjayev 2010, 17]

Maqola so'ngida foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro'yxati ikki qismdan iborat bo'lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko'rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

**Adabiyotlar**

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

**Adabiyotlar**

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini "*The Chicago Manual of Style, 16<sup>th</sup> Edition*" qo'llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle>. havolasidan ko'rib olishingiz mumkin.



Ushbu son “Oltin bitiglar” tahririyatida sahifalandi.  
Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi 103-uy.  
e-mail: oltinbitiglar@gmail.com  
Tel.: +99894 697-97-04

Bosishga 30. 03. 2023-yilda ruxsat etildi  
Qog'oz bichimi 70x100 1/16/.  
nashriyot bosma tabog'i: 8

Jurnal 2017-yil 26 oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot  
agentligi tomonidan № 0940 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc)  
dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan  
ro'yxatga kiritilgan.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.

“Mashhur-Press” bosmaxonasida chop etildi.  
Buyurtma №0440 Adadi 300 dona.  
Bosmaxona manzili:100129 Toshkent, Markaz 15, 1-uy. Tel.: +99890 900 75 77,  
+99894 659 94 62